



“KIBERXAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA KIBERTAHDIDLARGA QARSHI HUQUQIY HIMOYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH”

Saiivaliyeva Madina

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20314604>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16-may 2026 yil
Ma’qullandi: 18-may 2026 yil
Nashr qilindi: 20-may 2026 yil

KEYWORDS

kiberxavfsizlik, huquqiy jihatlar,
kibertahdidlar, O‘zbekiston
qonunchiligi, Budapesht
konvensiyasi, ma’lumotlarni
himoya qilish, kiberjinoyatlar.

ABSTRACT

Ushbu maqola kiberxavfsizlik sohasidagi huquqiy muammolarni kompleks o‘rganishga qaratilgan. Maqolada normativ-huquqiy tahlil, empirik so‘rovnoma va qiyosiy tahlil usullari qo‘llanilgan. So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatadiki, ishtirokchilarning 71,4%i kibertahdidlardan xavotirda, 50%i esa kibertahdidlarga uchragan. Ayollar va yoshlar kibertahdidlarga nisbatan eng himoyasiz guruhlar hisoblanadi: ayollarning 64,3% va 18-25 yoshli yoshlarning 71,4% o‘zlarining onlayn xavfsizligidan xavotirda ekanligini bildirgan. O‘zbekistonda kiberxavfsizlik sohasidagi huquqiy bazani takomillashtirish raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiya davrida kiberxavfsizlik butun dunyo davlatlari, korporatsiyalar va shaxslar uchun eng muhim strategik masalalardan biriga aylanishda davom etmoqda. Kibertahdidlarning tez sur’atlar bilan rivojlanishi, ularning murakkabligini tobora oshirib bu sohaga oid ilmiy tadqiqotlarni dolzarblashtirmoqda. Zamonaviy texnologiyaning jadal rivojlanishi bilan birga kiberxavfsizlik muammolari ham kuchaymoqda. Bu muammolar nafaqat texnologik, balki huquqiy jihatdan ham murakkab choralarni talab qilmoqda. Anderson (2020) kiberxavfsizlikni "ma’lumotlarning maxfiyligi, butunligi va mavjudligini himoya qilish" sifatida ta’riflaydi. O‘zbekiston Respublikasi "raqamli davlat" barpo etish yo‘lida izchil harakatlar olib bormoqda, shu sababli milliy kiberxavfsizlik tizimini takomillashtirish va uni xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish dolzarb vazifaga aylangan. Kibermakonning chegaralardan tashqarida joylashganligi va doimiy ravishda rivojlanishi an’anaviy huquqiy manbalarni sinovga solmoqda, bu esa zamonaviy yondashuvlar va qonunchilik islohotlarini talab qiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda internet foydalanuvchilarining soni keskin yuqorilab bormoqda, raqamli xizmatlar kengaymoqda, ammo bu bilan birga kiberjinoyatlarning ham soni oshdi. 2023-yil hisobotlariga ko‘ra, mamlakatda kiberjinoyatlar soni bir yil ichida 40%ga o‘sgan. Aholi shaxsiy ma’lumotlarini xavfsiz bo‘lishidan xavotir olishmoqda. Hattoki bugungi kunda xorijiy agentliklar, diplomatlar va elchilar bilan olib boriladigan suhbatlar, yozishmalar sir saqlanishi, shuningdek, axborot almashinishi xavf ostida.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, O'zbekiston hozirda raqamli davlatga, ya'ni raqamlashuv bosqichida bo'lib, ushbu jarayonda xavfsizlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism

1. Kiberxavfsizlikning nazariy asoslari va zamonaviy tahdidlar

Kiberxavfsizlikning fundamental kontseptsiyalari doirasida Schneider (2019) tomonidan taklif etilgan "Kibertahdidlar ierarxiyasi" nazariyasi muhim ahamiyatga ega. U tahdidlarni besh darajada tasniflaydi: fizikaviy, tarmoq, ilova, ma'lumotlar va foydalanuvchi darajasi tahdidlari. Bu tasnif zamonaviy kibertahdidlarning murakkab tabiatini tushinishda yordam beradi. Bugungi kunda Birlashgan millatlar tashkiloti shuningdek boshqa mintaqaviy tashkilotlar masalan, Yevropa ittifoqi, kiber zamonasida ishonchni hamda barqarorlikni oshirish bo'yicha qonuniy choralarni ishlab chiqishmoqda.

Zamonaviy kibertahdidlar tarkibi va shakli jihatidan tobora murakkablashib bormoqda. Ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, kiberjinoiyatlar yiliga 1 trillion AQSH dollaridan ortiq iqtisodiy zarar keltirmoqda (Anderson va boshq., 2023). Sun'iy intellekt asosidagi hujumlar, IoT qurilmalarining zaifliklari, kriptovalyutalar bilan bog'liq jinoyatlar kabi yangi turdagi tahdidlar an'anaviy himoya usullaridan ancha murakkabroq hisoblanadi.

(ISO/IEC 27001:2022.) Axborot xavfsizligi boshqaruvi tizimi

(ISMS) kompaniyaning ma'lumotlar aktivlarini tizimli ravishda boshqarish

va himoya qilishga qaratilgan. U doimiy takomillashtirish tamoyiliga asoslanib, tashkilotning ma'lumotlar xavfsizligi xavflarini baholash va boshqarishga yo'naltirilgan.

2. O'zbekistondagi kiberxavfsizlikning huquqiy asoslari va kamchiliklari

O'zbekistonda kiberxavfsizlik sohasidagi huquqiy bazani quyidagi me'yoriy hujjatlar tashkil etadi: "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun (2003, 2020),

Jinoyat kodeksining 278-279-moddalari, "Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida"gi Qonun (2019),

Prezidentning "Kiberxavfsizlik tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni (2021).

Ushbu hujjatlar kiberxavfsizlik sohasida ma'lum huquqiy asos yaratishga xizmat qilgan bo'lsa-da, ularning amaliyotda qo'llanilishi hali yetarlicha samarali emas. Ayniqsa, qonunlarning tarqoqligi va bundan tashqari zamonaviy tahdidlarga nisbatan normativ jihatdan qamrov etilmagan bir qancha sohalar ham mavjudligidir. Milliy kiberxavfsizlik strategiyasini ishlab chiqishda texnologiyalardan foydalanish axborot tizimlarining va mahsulotlarining xavfsizligi uchun ayni damda majburiy talablar va sertifikatlash tartiblari joriy etilmoqda. Karimova D.ning "Kiberjinoiyatlar va ularning huquqiy oqibatlarini" (2023) maqolasi mavzuning nazariy asoslarini yoritishda dolzarbligicha qolmoqda. Muallif quyidagi asosiy g'oyalarni ilgari suradi:

Kiberjinoiyatlarning O'zbekiston kontekstidagi specifikasi: Muallif O'zbekistonda keng tarqalgan kiberjinoiyat turlarini (bank kartalari bilan firibgarlik, ijtimoiy tarmoqlardagi firibgarlik, ma'lumotlarni buzish) an'anaviy jinoyatlardan farq qiluvchi xususiyatlarini tahlil qiladi.

Kiberjinoiyatlarning huquqiy tabiati: Karimova kiberjinoiyatlarni nafaqat Jinoyat kodeksidagi moddalar, balki ma'lumotlarning maxfiyligi, axborot xavfsizligi kabi sohalar bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, O'zbekistonda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun proaktiv, Jinoyat kodeksi esa reaktiv vazifani bajaradi va ularning muvofiqlashtirilgan amal qilishi muhim ahamiyatga ega.

Kiberxavfsizlik bu faqat himoyalash emas balki, tahdidlarni insonlar shaxsiy ma'lumotlariga va iqtisodiy manbalarga hujumlardan samarali himoya qilishdir. Xavfsizlikning eng yuqori

ko'rinishlari ham aynan shu sohada qonunlar qabul qilish va qabul gilingan qonunlarni ijtimoiy hayotta qo'llay olish bilan bog'liq. Tadqiqot aynan mana shu masalalar va kibertahdid, kiberjinoiyat haqida yurydoshlarimiz qanday fikrdaligi va nimani tushunishini ochib berdi.

Empirik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, www.lex.uz portali orqali olingan ma'lumotlar asosida O'zbekistonda 2781-2782-moddalar bo'yicha sud ishlari soni sezilarli darajada oshayotgani qayd etilmoqda. Biroq, aniq statistik ma'lumotlar va ularning tahlili hali yetarli darajada amalga oshirilmagan.

3. Xalqaro tajriba va qiyosiy tahlil

O'zbekistonning kiberjinoiyalar bilan bog'liq bo'lgan qonunlari mavjud bo'lishiga qaramay ularni samarali ishlashi siyosiy, iqtisodiy va muhimi shaxsiy munosabatlarda aholi tomonidan rioya qilinadi. Kelajakka intilishda aynan huquq bilan raqamli texnologiyalar ham birdek barobar. Shuningdek, O'zbekiston qonunlarini xalqaro standartlar (Yevropa Ittifoqining Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish qoidalari - GDPR) va qo'shni mamlakatlar (Rossiya, Qozog'iston) tajribasi bilan solishtirish quyidagi kamchiliklarni ko'rsatadi:

- Kiberxavfsizlikning alohida kodeksining yo'qligi
- Davlatlararo hamkorlik mexanizmlarining yetishmasligi
- Zamonaviy tahdidlarni qamrab olmaslik
- Kuchli proaktiv mexanizmlarning yo'qligi

Kiberxavfsizlik sohasidagi jinoyatlar ya'ni, zamonaviy tahdidlarlar, kriptovalyutalar bilan bog'liq jinoyatlar kabi yangi turdagi tahdidlar ommalashib bormoqda.

NIST (2020). Kiberxavfsizlik faqat texnologik masala emas, balki tashkilotning maqsadlariga erishish xavfini boshqarishning ajralmas qismidir. Korxonalar har qanday masalalarda huquqiy madaniyatga asoslanib ya'ni xizmatchilar, buyurtmachilar va umuman olganda barcha ijtimoiy hayotimizdagi insonlarning qonun-qoidalarni bilishi, ularni amalda qo'llashi, boshqalarning ham huquqini inobatga olib, hurmat qilgan holda amalga oshirishiga e'tibor berishadi. Chunki o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki korxonaning har bir ishlab chiqarkan mahsuloti insonlarning hayotida bir o'rinni egallashi mumkin. Bu albatta, bir misol. Ushbu framework identifikatsiya, himoya qilish, aniqlash, javob berish va tiklash kagi besh asosiy funktsiyani o'z ichiga oladi.

4. Kibertahdidlarning guruhlar bo'yicha ta'siri

So'rovnoma natijalari kibertahdidlarning turli ijtimoiy guruhlariga turlicha ta'sir qilishini ko'rsatdi. Ayollar va yoshlar kibertahdidlarga nisbatan eng himoyasiz guruhlar hisoblanadi:

- Ayollarning 64,3% o'zlarining onlayn xavfsizligidan xavotirda ekanligini bildirgan
- 18-25 yoshli yoshlarning 71,4% kibertahdidlardan xavotirda ekanligi aniqlandi

Mavjud qonunchilikda ushbu guruhlarini himoya qilish uchun maxsus mexanizmlar etishmayapti. "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasida fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish mexanizmlari mavjud bo'lsa-da, ayollar va yoshlar huquqlarini himoya qiluvchi maxsus qoidalar ishlab chiqilmagan.

5. Xalqaro huquqning roli va Budapesht konvensiyasi

Xalqaro huquq kiberxavfsizlik sohasida muhim rol o'ynaydi. Interpol -xalqaro jinoiy politsiya, BMT tomonidan qabul qilingan bir nechta hujjatlar, Budapesht Konvensiyasi shular jumlasidan. Budapesht konvensiyasi sifatida ham tanilgan kiberxavfsizlik Konvensiyasi Internet va kompyuterlarda kiberjinoiyatchilikka qarshi kurash bo'yicha birinchi xalqaro shartnomadir. Uning maqsadi nima ekanligi bu sohadagilar va bugungi kunda barchaga ma'lum. Ushbu Konvensiya Strasburgda Frantsiyaning Yevropa Kengashidagi elchisi tomonidan imzolangan. Ushbu faoliyatda Kanada, Yaponiya, Filippin, Janubiy Afrika va AQSh faol ishtirok etmoqda. Konvensiya Budapesht

Konvensiyasi sifatida ham tanilgan kiberxavfsizlik Konvensiyasi Internet va kompyuterlarda kiberjinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha birinchi xalqaro shartnoma. Ushbu Konvensiya Strasburgda Fransiyaning Yevropa Kengashidagi elchisi tomonidan imzolangan. Ushbu faoliyatda Kanada, Yaponiya, Filippin, Janubiy Afrika va AQSh faol ishtirok etmoqda. Budapesht konvensiyasi Vengriyaning poytaxti Budapeshtda qabul qilingan. 2004-yil 1- iyuldan boshlab kuchga kirgan. Konvensiya kuchga kirgandan so'ng bir necha davlatlar buni qabul qillishmadi, xususan, Braziliya va Hindiston. Rossiya esa aynan Budapesht konvensiyaga qarshi bo'ldi. Konvensiya kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda davlatlararo hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan asosiy hujjatlardan biridir.

Konvensiya:

- 9 ta asosiy kiberjinoyat turini belgilaydi
- Jinoiy protsedura qoidalarini (dalillarni to'plash va saqlash) o'rnatadi
- Xalqaro hamkorlik mexanizmlarini taklif etadi

O'zbekiston qonunchiligi ushbu xalqaro standartlar bilan solishtirilganda, ma'lumotlarni himoya qilish, shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha normativ jihatdan ancha orqada qolganligi aniqlandi.

6. Empirik tahlil natijalari

O'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra:

- Ishtirokchilarning 71,4% kibertahdidlardan xavotirda
- 50% ishtirokchilar allaqachon kiberhujumlarga duchor bo'lgan
- Ayollarning 64,3% onlayn xavfsizlikdan xavotirda
- 18-25 yoshli yoshlarning 71,4% kibertahdidlardan xavotirda

So'rovnomada qatnashganlarning aksariyati shaxsiy ma'lumotlarining himoyalanganligiga ishonchsizlik bildirishgan, shuningdek, bugungi kunda kiberxavfsizlik va uning huquqiy jihatlari haqida bilim darajasi pastligi qayd etilgan.

O'zbekistonda kiberxavfsizlik sohasidagi huquqiy baza ma'lum darajada yaratilgan bo'lsa-da, u hali zamonaviy tahdidlarga qarshi samarali kurashish uchun yetarli emas. Quyidagi takliflar amalga oshirilishi zarur:

1. Kiberxavfsizlik Kodeksini ishlab chiqish - sohadagi tarqoq qonunlarni birlashtiruvchi yagona hujjat

2. Maxsus himoya mexanizmlarini joriy etish:

- Ayollar va bolalar huquqlarini himoya qiluvchi maxsus, aniqlashtirilgan moddalar
- Yosh guruhlar uchun mo'ljallangan edukativ dasturlar
- Kiberta'qib qilish holatlari uchun maxsus javobgarlik choralari

3. Xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish:

- Budapesht konvensiyasi talablariga moslashtirish
- GDPR tamoyillari asosida ma'lumotlarni himoya qilish

4. Kiberxavfsizlik madaniyatini oshirish - jamoatchilikni xabardor qilish va mutaxassislar tayyorlash

5. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish - qo'shni davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan kelishuvlar tuzish

Ushbu chora-tadbirlar orqali O'zbekiston nafaqat milliy kiberxavfsizlik tizimini mustahkamlaydi, balki xalqaro hamjamiyatda o'z o'rnini mustahkamlagan holda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

7. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni (2003)

So'rovnoma natijalari kibertahdidlarning turli ijtimoiy guruhlariga turlicha ta'sir qilishini ko'rsatdi. Ayollar va yoshlar kibertahdidlarga nisbatan eng himoyasiz guruhlar hisoblanadi: ayollarning 64,3% va 18-25 yoshli yoshlarning 71,4% o'zlarining onlayn xavfsizligidan xavotirda ekanligini bildirgan.

Xulosa va takliflar

Mening fikrimcha, ayni damda axborot va raqamlashuv davrida shiddat bilan rivojlanib borayotgan kiberjinoyat, kibertahdid shuningdek kiberxavfsizlik masalalari har bir insonni shakshubhasiz noqulay vaziyatga solib qo'yadi. Kiberjinoyatlardan ,ruxsatsiz tizimga kirish (hacking), Fishing ,scam, zararli dasturlarni yaratish ,ulashish, insonning shaxsiy ma'lumotlarini o'g'irlash, yashirish va tarqatish ayni damda mashxur. Shuning uchun tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Kiberxavfsizlik Kodeksini ishlab chiqish - sohadagi tarqoq qonunlarni birlashtiruvchi yagona hujjat bo'lishi kerak.

2. Maxsus himoya mexanizmlarini joriy etish:

- Ayollar va bolalar huquqlarini himoya qiluvchi maxsus moddalar
- Yosh guruhlar uchun mo'ljallangan edukativ dasturlar

3. Xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish:

- Budapesht konvensiyasi talablariga moslashtirish
- GDPR tamoyillari asosida ma'lumotlarni himoya qilish

4. Kiberxavfsizlik madaniyatini oshirish - jamoatchilikni xabardor qilish va mutaxassislar tayyorlash

5. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish - qo'shni davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan kelishuvlar tuzish

Ushbu chora-tadbirlar orqali O'zbekiston nafaqat milliy kiberxavfsizlik tizimini mustahkamlaydi, balki xalqaro hamjamiyatda o'z o'rnini mustahkamlagan holda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Anderson, R. (2020). Cybersecurity Fundamentals
2. Schneier, B. (2019). Hierarchy of Cyber Threats
3. Anderson, R. et al. (2023). Measuring the cost of cybercrime
4. Zhao, P., & Zhao, L. (2022). Artificial intelligence in cybersecurity
5. Smith, J., Johnson, M., & Williams, K. (2023). Human factors in cybersecurity
6. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni
7. European Union (2016). General Data Protection Regulation (GDPR)
8. Council of Europe (2001). Convention on Cybercrime (Budapest Convention)
9. Karimova D "Kiberjinoyatlar va ularning huquqiy oqibatlarini" (2023)
10. Chen, X., et al. (2022). "AI-Powered Threat Detection: An Empirical Analysis". Journal of Cybersecurity Research.
11. ISO/IEC 27001:2022. Information security management systems.
12. Wilson, C. (2021). Cyber Threats and National Security. Georgetown Journal of International Affairs.
13. NIST (2020). Cybersecurity Framework Version 2.0. National Institute of Standards and Technology



INNOVATIVE
ACADEMY